



PETRUSHKA (*PETROSELINUM CRISPUM*) O'SIMLIGINI DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Musurmonova Gulhayo Komiljon qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya yo'nalishi II-bosqich talabasi
Mamatkulova Iroda Ergashevna
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Biotexnologiya yo'nalishi
E-mail: musurmonovagulhayo339@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Petrushka o'simligining dorivorlik xususiyatlaridan xalq tabobati va zamonaviy tabobatda oqilona foydalanish yo'llari yoritib berilgan. Petrushka gipogelikemik, diuretic, mikroblarga qarshi o'simlik hisoblanib, qandli diabet va oshqazon shilliq qavati hamda gastrit kasaligida samarali yordam bo'lgan o'simlik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: foliy kislotasi, inulin, flavonoid, karatenoid, menopauza davri, miristitsin, osteoporoz xavfi, tinktura, urolitiyoz.

Kirish. Petrushka (*Petroselinum crispum*)-soyabonguldoshlar oilasiga mansub bir yoki ikki yillik o't o'simliklar turkumi va sabzovot ekini hisoblanadi. Asosan vatani O'rta yer dengizi sohillari hisoblanadi. Petrushka - jingalak yoki tekis varaqlarga mayda bo'lingan boy yashil, uchburchak, barglari hushbo'y o'simlik. O'simlik ikkinchi yili soyabonlarda mayda sariq-yashil gullarga ega bo'lgan poyalarni yuborish orqali gullaydi va hushbo'y ta'mini yo'qotadi. Hushbo'y hidi ta'omlar va salatlarga hamda bezak sifatida barglari yoki quritilgan shakli oshxonalarda ishlatiladi. Petrushka urug'lari ham pishirishda ishlatiladi, bu barglardan ko'ra kuchliroq ta'm beradi[2,3]. *Petroselinum crispum* tarkibida flavonoidlar, karatenoidlar va askorbin kislotasi kabi ko'plab antitoksidantlar mavjud. A,C,B vitaminlari va minerallarga, jumladan kaliy, kaltsiy, fosfor, natriy, sink, temir, mis va marganes vitaminlariga boy o'simlik hisoblanadi, Minerallar nafaqat ko'katlarda, balki ildizda ham mavjud. Shuningdek o'simlik tarkibida foliy kislotasi va inulin ham mavjud. Petrushka mevalarida 6% gacha efir moyi, 22% gacha yog'li moy, flavonoidlar, (apinin, diosmin, narenginin, lyuteolin, apinin glikozidlari) bor. Barglarida efir moyi flavonoidlar va askorbin kislota, gullari bilan ildizlarida esa flavonoidlar bo'ladi[1,3,4].



Petrushka inson salomatligi uchun bir qator foydali xususiyatlarga ega. Bular quyidagicha: buyrak faolyatini tozalash, siydik yo'llar tizimini yaxshilash va qalqon simon bez faolyatini yaxshilaydi. Oshqozon va o'n ikki barmoq ichakning ish faolyatini normallashtiradi. Ko'zning hiralashini oldini oladi va ko'rishni yaxshilaydi. Qandli diabet, bronxial astma va yallig'lanish kasaliklarida foydali xususiyatga ega. Bundan tashqari petrushka terini yoshartiradi. Tarkibida fosfor, oltingugurt, temir kabi minerallar borligi sababli menopauza davrida osteoporoz xavfini oladi. Petrushka o'simligi yuqori qismi gemaroyini davolashda, poyasi siydik yo'llar yallig'lanishida ildizi buyrak toshlarini haydashda miya faolyati va xotirani mustahkamlashda qo'llaniladi. Yuqori qon bosimini normallashtirishga yordam beradi, anemiyani davolaydi. O'simlik tarkibida isitma, nevrologiyani bartaraf etishga yordam beradigan apiol mavjud. Petrushka o'simligidan foydalanish erkaklar uchun bepushtlikni oldini olishda, milklar va tishlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishda, erta qarishni oldini olishda, ayollar uchun kosmetika hamda soch to'kilishini oldini olishda, sochlardagi kepakni yuqotishda yordam beradi. Petrushka urug'idan tayyorlangan damlama osteoxandrozda va peshob haydashda samarali foyda beradi. Ruhiy kasaliklar va dispersiyada hamda toksinlar va tuzlarni ajratishda samarali yordam beradi[5,3].

Xalq tabobatida petrushka urug'laridan siydik haydaydigan va terlatadigan vosita tariqasida foydalanib kelingan, ularni hayz buzilib, og'riq bo'lib turadigan mahallarda, prostata bezi va qovuq yallig'langan paytlarda samarali yordam beradi. Yangi barglarini yanchib yoki paxtani barglari suviga ho'llab, hashorotlar chaqan joylarga qo'yiladi. Tanadagi sepkil va dog'larni yo'qotish uchun ishlatiladi[1,2,3]. Zamonaviy tabobatda petrushka mevalari tinktura ko'rinishida yoki yig'ma dorilar tarkibida buyrak va yurak kasaliklariga aloqador shishlarga qarshi kuchli siydik haydaydigan vosita sifatida keng qo'llaniladi. Petrushkada talaygina askorbinat kislotasi borligi va efir moyining meda shirasi ajralishini kuchaytirish olishi, petrushkani gipoatsid gastritlar, astenik holatlarda qo'llanishga imkon beradi. Siydik tosh kasalligi, sistitlar, ovqat hazmning buzilishi, bachadondan qon ketishiga davolashda petrushkani ishlatib, yaxshigina natijalar olingan. Jigar kasaliklari, ovqat yaxshi hazm bo'lmasligi va qorin dam bo'lgan vaqtda petrushka damlamasini ichish tavsiya etiladi. Petrushka gipogelikemik diuretic, gipolipedimik, mikroblarga qarshi, antikogulyant tasirga ega. Qandli diabet, oshqozon shilliq qavati hamda gastrit kasaliklarida samarali yordam bo'lgan o'simlik hisoblanadi[1,6,7].

Xorij tadqiqotchilari petrushka o'simligidan foydalanib kalamushlarda tajribalar o'tkazgan. Bundan maqsad insonlarda stress tufayli kelib chiqadigan oshqozon yallig'lanishi va qandli diabet kasalligiga davolash choralarini izlangan. Tajribada petrushka



o'simligining inson salomatligi uchun bir qancha foydasi tegadigan tadqiqot natijalariga erishilgan[4].

Petrushkaning foydali xususiyatlari bilan birga zararli tomonlari ham mavjud. O'simlikning uchuvchi efir moylari zararli hisoblanadi, bu moddalar allergiya olib kelishi mumkin. Shuning uchun shifokorlar homiladorlik vaqtida tavsiya etmaydi.

Xulosa: Petrushka o'simligi zamonaviy va xalq tabobatida keng foydalanib kelingan va samarali natijalarga erishilgan o'simlik hisoblanib, tarkibida bir qancha minerallarga va vitaminlarga boy o'simlik hisoblanadi. Osimlikni istemol qilish inson salomatligiga kata tasir qiladigan hususiyatga ega va foydali belgilarini ko'rsatadigan hamda yaxshi natijalarga erishilgan o'simlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A. Jo'rayeva "Dorivor o'simliklar atlası".2019 yil 169 bet.
2. Nasser S. Abou Khalil, Alla S. Abou-Elhamd, Salwa I.A. Wasfy, Ibtisam M. H. El Millegly, Mohamed Y. Hamed, and Hussein m. Ageely. "Antidiabetic and Antioxidant Impacts of Desert Date (*Balanites aegyptiaca*) and Parsley (*Petroselinum sativum*) Aqueous." National Library of Medicine 2016
3. Esther Lai-Har Tang, Jayakumar Rajarajeswaran, ShinYee Fung and MS Kanthimathi. "Petroselinum crispum has antioxidant properties, protects against DNA damage and inhibits proliferation and migration of cancer ceels. National Library of medicine 2015.
4. Aysin Akinki, Mukaddes Esrefoglu, Elif Taslidere, and Burhan Ates. "Petroselinum Crispum is Effective in Reducing Stress-Induced Gastric Oxidative Damage". Balkan Med J 2017.
5. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov "Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan ridge, Uzbekistan" biodiversitas ISSN: 1412-033x Volume 24, number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722 pages: 1621-1628
6. O'ralov A.I., Mamatkulova I.E. "Soyabonguldoshlar oilasi ayrim vakillarining ahamiyati (*Elwendia Boiss. turkumi*)" XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarni ahamiyati respublika ilmiy anjumani, 2021 yil, 15-aprel. Jizzax. B. 268-269
7. Mamatkulova I.E. "O'zbekistonda Apiacyeaye oilasiga mansub istiqbolli dorivor va ziravor o'simliklarni etishtirish texnologiyasi" Zamonaviy biologik ta'limni rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2022 yil 8 aprel. Jizzax. B. 86-90